



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

10 (72) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

10 (72)

2024

октябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UQK 618.3-618.5

ONALAR O'LIMI VA UNING XAVFLI OMILLARI

Allanazarov I.M., Xoliyeva N.X., Dadamuxamedova X.E.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (TTA) Uzbekistan, 100109, Toshkent, Almazor tumani,
Farobiy ko'chasi 2, tel: +99878 1507825, E-mail: info@tma.uz

✓ Rezyume

Har yili dunyo bo'ylab onalar va chaqaloqlar o'limi JSST ma'lumotlariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarda 600 mingdan ortiq ayol va 8 million chaqaloq homiladorlik va tug'ish davridagi asoratlardan aziyat chekmoqda. Tug'ish davridagi ayollar va COVID-19 infeksiyalari bilan kasallanganlar uchun tibbiy omillar quyidagilardir: homiladorlik paytida ekstragenital kasalliklar; homiladorlik davrida rivojlanayotgan patologiyalar; tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda yuzaga kelgan asoratlar va yatrogeniya.

Kalit so'zlar: Onalar o'limi, homiladorlik patologiyasi, EGK, COVID-19 infeksiyalari, xavfli omillari, patologiya, asoratlar.

МАТЕРИТНСКАЯ СМЕРТНОСТЬ И ЕЕ ФАКТОРЫ РИСКА

Allanazarov I.M., Xoliyeva N.X., Dadamuxamedova X.E.

Ташкентская Медицинская Академия (ТМА) Узбекистан, 100109, Ташкент, Алмазарский район, ул. Фароби 2, тел: +99878 1507825, E-mail: info@tma.uz

✓ Резюме

Материнская смертность и смертность новорожденных во всем мире ежегодно по данным ВОЗ, в развивающихся странах от осложнений во время беременности и родов встречается более 600 тыс. женщин и 8 млн. младенцев а также в Республике Узбекистан. Медицинскими факторами рожениц и у перенесших после COVID-19 инфекции являются: экстрагенитальные заболевания во время беременности; патологии, развивающаяся во время беременности; осложнения, возникшие во время родов и в послеродовом периоде и ятрогения.

Ключевые слова: Материнская смертность, патология беременности, ЭГК, инфекции COVID-19, факторы риска, патология, осложнения.

MATERNAL MORTALITY AND ITS RISK FACTORS

Allanazarov I. M.¹, Xoliyeva N. X.¹, Dadamuxamedova X. E.¹.

Tashkent Medical Academy (TTA) Uzbekistan, 100109, Tashkent, Almazor district,
2 Farobi Street, phone: +99878 1507825, E-mail: info@tma.uz

✓ Resume

Maternal and newborn mortality worldwide every year, according to WHO, in developing countries more than 600 thousand women and 8 million infants suffer from complications during pregnancy and childbirth, as well as in the Republic of Uzbekistan. Medical factors for women in labor and those who have suffered post-COVID-19 infections are: extragenital diseases during pregnancy; pathologies developing during pregnancy; complications that arose during childbirth and in the postpartum period and iatrogenicity.

Key words: Maternal mortality, pregnancy pathology, EGK, COVID-19 infections, risk factors, pathology, complications.

Dolzarbligi

Bütün dunyoda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida onalar o'limining asosiy sabablari va xavfli omillari, JSST ma'lumotlariga ko'ra har yili rivojlanayotgan mamlakatlarda homiladorlik va tug'ish davridagi asoratlardan 600 mingdan ortiqroq ayol va 8 million chamasi chaqaloq nobud bo'lmoqda. Ulardan eng ko'p o'lim, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Afrika va Janubiy Osiyoda sodir bo'lmoqda. So'nggi o'n yilliklar davomida dunyoda onalar o'limining 2010-yildagi 538 ming nafardan 2020-yildagi 268 ming nafarga qadar keng miqyosda qisqarishi kuzatildi. Bu o'zgarishlar, birinchi navbatda, kontraseptiv vositalardan foydalanish chastotasining oshishi, tug'ilish darajasining pasayishi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va ta'lim darajasining yaxshilanishi, shuningdek, tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarining oshishi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri sabablarga ko'ra onalar o'limining kamayishi bilan birga, bilvosita sabablar ulushi ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Shu asosda "Sog'lom ona — sog'lom bola", "Sog'lom avlod uchun", "Ona va bola", "Ona va bola skriningi" dasturlari doirasida vazifalarni bajarishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlari va boshqalar aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy rivojlangan avlodni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston Respublikasi bo'yicha onalar o'limi ko'rsatkichlari uch baravardan ko'proq kamaydi, nafaqat demografik barqarorlikka erishildi, balki umr ko'rish davomiyligi 67 yoshdan 72,5 yoshgacha oshdi.

Tadqiqot maqsadi: Ekstragenital kasalliklardan (EGK) va COVID-19 koronavirus infeksiyasi pandemiyasi davrida vafot etgan onalar o'limini tahlil qilish.

Material va tadqiqot usullari

EGK dan vafot etganlarning, COVID-19 koronavirus infeksiyasi va boshqa sabablarga ko'ra onalar o'limi va o'lik tug'ilish holatlari to'g'risidagi hisobotlarni adabiy ma'lumotlarga tayanib tahlil qilish. Dunyo bo'ylab deyarli har ikki daqiqada bir ayol homiladorlik va tug'ish asoratlaridan vafot etadi va o'lim holatlarining aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Afrika va Janubiy Osiyoda, shuningdek O'zbekiston Respublikasida qayd etilmoqda.

Ba'zi ijtimoiy — tibbiy omillar bilan bog'liq holda onalar o'limi holatlarining rivojlanishida fertil yoshdagi ayollarning ijtimoiy holatining rolini aniqlash shuni ko'rsatdiki, onaning barcha yo'qotishlarining $\frac{3}{4}$ dan ko'prog'ida 4 ta sabab aniqlangan: homiladorlik paytida ekstragenital kasalliklar; homiladorlik paytida rivojlangan patologiyalar; tug'ruq paytida va tug'ruqdan keyingi davrda yuzaga keladigan asoratlari va yatrogeniya.

Onalar o'limi xavfini kuchaytiradigan qo'shimcha sabablar tibbiy-ijtimoiy, ijtimoiy-gigienik va tibbiy-tashkiliy omillar majmuasidir.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, I.M.Allanazarov va hammualliflarning ta'kidlashicha, onalar o'limining rivojlanishida ekstragenital kasalliklar birinchi o'rinda, akusherlik asoratlari ikkinchi o'rinda, ijtimoiy kategoriya uchinchi o'rinda va tug'ruq paytida ayollarning yoshi to'rtinchi o'rinda turadi.

O'ninchi qayta ko'rib chiqilgan kasalliklar va sog'liq bilan bog'liq muammolarning xalqaro statistik tasnifiga ko'ra (MKB-10), onalar o'limining sabablari to'g'ridan – to'g'ri, ya'ni akusherlik sabablari bilan bevosita bog'liq va bilvosita - bilvosita akusherlik sabablari bilan bog'liq.

So'nggi o'n yilliklarda dunyoda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham onalar o'limi sonining keskin kamayishi kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar, birinchi navbatda, kontratsepsiya vositalaridan foydalanish chastotasining oshishi, tug'ilish ko'rsatkichining pasayishi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ta'lim darajasining yaxshilanishi, shuningdek, tibbiy yordamning ko'payishi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda onalar o'limining to'g'ridan-to'g'ri sabablarga ko'ra kamayishi bilan bir vaqtda bilvosita sabablarning ulushi ham ortadi.

Natija va tahlillar

EGK dan onaning o'limi sabablari ichida qon aylanish tizimi kasalliklari birinchi o'rinni egalladi (37,7%). EGK dan vafot etgan ayollar va boshqa sabablarga ko'ra vafot etgan ayollarning tibbiy-

ijtimoiy xususiyatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilmadi, faqat EGK dan vafot etgan ayollar orasida 1,5 baravar tez-tez uchraydigan yomon odatlar bundan mustasno. EGK dan har uchinchi ona o'limi homiladorlik davrida sodir bo'lgan. EGK dan onalar o'limining yarmidan ko'pi muqarrar deb topildi.

MKB-10 ga ko'ra, akusherlik sabablari bilan bilvosita bog'liq bo'lgan onaning o'limi - bu homiladorlik paytida paydo bo'lgan kasallik yoki kasallik natijasida, to'g'ridan-to'g'ri akusherlik sababi bilan bog'liq bo'lmagan, ammo homiladorlikning fiziologik ta'siri tufayli og'irlashgan o'limdir.

Koronavirus infeksiyasi - butun dunyo bo'ylab pandemiyaga sabab bo'lgan COVID-19 O'zbekiston Respublikasini ham chetda qoldirmadi. Koronavirus infeksiyasi-COVID-19 birinchi navbatda og'ir o'tkir respirator sindromni keltirib chiqaradi 2 (SARS-CoV - 2) va nafaqat akusher-ginekologlar, balki neonatologlar va pediatrlar uchun ham katta qiziqish uyg'otadi. Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun onalar o'limi, shuningdek, homiladorlik paytida, tug'ruq paytida va tug'ruqdan keyingi ayollarda COVID – 19 infeksiyasi bilan bog'liq adabiy ma'lumotlar taqqoslab o'rganildi.

Adabiy ma'lumotlarga ko'ra, olimlar Reddy va boshq. (2016) Belgiyada yuqumli bronxit virusining nefro-patogen shtammi aniqlanganligini ko'rsatdi, B1648 shtammi qon monotsitlarini yuqtiradi va bu monotsitlar yuqumli bronxit virusining ichki organlarga, shu jumladan nafaqat buyraklarga tarqalishiga yordam beradi, shuningdek, nafas olish yo'llaridan tashqarida quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: limfa tizimi va makrofag infeksiyasi, xuddi yuqumli bronxit virusining tarqalishi (aksirish, nafas olish qiyinlashuvi, yo'tal, traxeyada xirillash, burun oqishi, kon'yunktivit va nafas qisilishi) kabi alomatlarini beradi.

Reproduktiv jarayon bilan bog'liq infeksiyaning klinik ko'rinishlari yuqumli shtammlarga bog'liq: masalan, M41, Aust T va QX shtammlari va shunga o'xshashlar reproduktiv funktsiyani, jarayon nuqsonlarini keltirib chiqarishi ma'lum, uzoq umr ko'rgan tovuqlarda mahsulot unumdorligi normal mahsuldorlikka nisbatan 6% dan 12% gacha pasayadi. Reprodukativ jarayondagi infeksiyalarda qisqaroq, gipoglandulyar tuxum yo'llari va tuxumdonlarning regressiyasi qayd etilgan. Epiteliyning qayta tiklanishi va epiteliy hujayralari balandligining pasayishi gistologik jihatdan qayd etilgan, epiteliyning desquamatsiyasi bilan birga kamdan-kam follikulyar destruktiviyalar va mikroqon ketishlar bilan kasallangan tuxum yo'llari tez-tez uchraydi.

Organlarni patologik tekshirishda qon ketishlar va traxeya, burun yo'llari va sinuslarda kazeoz, seroz va kataral ekssudatning to'planishi, shuningdek, alveolalarda katta o'zgarishlar (ya'ni ko'pikli yoki xira ekssudat to'planishi) aniqlanadi. Namuna olish vaqtiga qarab, gistologik belgilar epiteliy hujayralarining qayta tiklanishi va siljishini, shuningdek mononuklear hujayralarning infiltratsiyasini o'z ichiga oladi. Ushbu o'zgarishlar 2-3 nuqtadan ko'rinadi. Epiteliy giperplaziyasi va gipertrofiyasi rivojlanishi bilan boradigan va shilliq qavatning xususiy plastinkasida mononuklear hujayralarning sezilarli infiltratsiyasi 4-6 nuqta atrofida ko'rinadi. Ushbu bosqichlar kipriksimon epiteliy va qadahsimon hujayralarining qayta tiklanishi bilan kechadi.

O'tgan yillar bo'yicha yuqoridagilarni hisobga olgan holda, koronavirus infeksiyasi nafaqat nafas olish yo'llari, balki boshqa organlar: markaziy asab tizimi, yurak-qon tomir tizimi, buyraklar, jigar, asab-mushak o'tkazuvchanligining buzilishi va boshqalar bilan namoyon bo'lgan deb tasavvur qilish mumkin. Homiladorlikning turli davrlarida tug'ilish va tug'ruqdan oldingi va tug'ruqdan keyingi davr kasallik tarixi, shuningdek, etib tug'ilgan, erta tug'ilgan va vafot etgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning platsenta patologiyasi retrospektiv ravishda o'rganildi. Tuqqan 100 ayoldan 2 ta o'lik tug'ilish qayd etildi va 33-38 xaftada o'lik tug'ilish, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'limi bilan 4 ta holat, qolgan tug'ilish o'z vaqtida bo'lgan.

Patologoanatomik tadqiqotlar uchun tibbiy muassasadan yuborilgan platsentani o'rganish shuni ko'rsatdiki, makroskopik o'zgarishlar kuzatilmagan, membranalar normal, kulrang-pushti, ingichka, shaffof. Platsentaning ona qismidagi (bazal plastinka) platsentaning vorsinali qismidagi 57% holatlarning nuqsonsiz, shundan 14% - o'lik tug'ilganlar va 29% - 33-38 haftada vafot etganlar tiniq emas va biroz xira edi.

Nazorat guruhlarini bilan solishtirganda, Covid-19 bilan kasallangan bemorlarning yo'ldoshlarida onaning qon tomir malperfuziyasi belgilari tez – tez uchraydi-hujayralararo bo'shliqda kislorodning buzilishi natijasida yo'ldoshning shikastlanishi, bu esa perinatal salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mikroskopik jihatdan, oraliq differensiallashgan vorsinalar yumaloq shaklga ega va stromal kanallar yo'q; 2 o'lik tug'ilgan va 33-38 xaftada vafot etgan 4 nafardan terminal vorsinalar esa kichik, yumaloq shaklga ega bo'lib, yuzasida ko'plab sinsitial tugunlar va kichik qon ketish o'choqlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, onalarning EGSdan nobud bo'lishlarini kamaytirish muammosini hal qilishda antenatal yordam sifatini oshirishga qaratilgan profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur. Onalar o'limini kamaytirish nafaqat butun dunyoda, balki O'zbekiston Respublikasida ham sog'liqni saqlashning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa

Shunday qilib, adabiyotlar va bizning tadqiqotlarimizga ko'ra onalar o'limi darajasi va dinamikasini tahlil qiluvchi ko'rsatkichlar nafaqat akusher-ginekologlar, balki butun sog'liqni saqlash tizimi faoliyati natijalarini baholashga imkon beradi.

Anatomik va gistologik tadqiqotlarda periferik infarktlar, ateroskleroz va fibrinoid nekroz, shuningdek, gipertrofiya anamnezida COVID-19 infeksiyasi bo'lgan ayollarning yo'ldoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra, tug'ruqdagi ayollarga nisbatan ko'proq uchraydi. Ushbu o'zgarishlar erta tug'ilishga (2 ta erta tug'ilish holati) va o'lik tug'ilishga (4) olib keldi.

Ushbu natijalar epidemiya davrida kuzatilgan tug'ruq davridagi ayollarning homiladorlik davrida COVID-19 dan aziyat chekishi va salbiy perinatal oqibatlariga duchor bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi, hamda COVID-19 tashxisi qo'yilgan ayollarning antenatal kuzatuvini kuchaytirish zarurligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adamyan L.V., Aznaurova Ya.B., Filippov O.S. COVID-19 va ayollar salomatligi (adabiyot sharhi) //Reproduksiya muammolari. 2020;26(2):6-17.
2. Vashukova M.A., Tsinkerling V.A., Semenova N.Yu., Lugovskaya N.A., Narkevich T.A., Suxanova Yu. Perinatal COVID-19 mumkinmi: birinchi natijalar //Infektologiya jurnali. 2020;12(3):51-55.
3. Vukolova V.A., Enkova E.V., Ryjikov Yu., Sokol E.B., Ippolitova L.I., Kiseleva E.V., Korj E.V. COVID-19 bilan kasallangan ayollarda homiladorlik, tug'ish va homila holatini baholash //Yangi tibbiy byulleteni. texnologiyalar. Elektron nashr. 2020;1(6):56-62.
4. Mamatqulov B.M., Ustamadaliyeva D.A., Hakimova D.S. /Farg'ona vodiysida onalar o'limining asosiy sabablari va xavf omillari //Tibbiyot. Yosh olim 1 aprel 2015;7(87).
5. Pripitnevich T.V., Gordeev A.B., Lyubasovskaya L.A., Shabanova N.E. Yangi koronavirus SARS-COV-2 va homiladorlik: adabiyot sharhi //Akusherlik va ginekologiya. 2020;5:6-12.
6. Assiri A, Abedi GR, Al Masri M, Bin Saeed A, Gerber SI, Watson JT. Middle East Respiratory Syndrome Coronavirus Infection During Pregnancy: A Report of Cases From Saudi Arabia: Table 1. Clin Infect Dis 2016;63(7):951-3.
7. Baergen RN, Heller DS, Goldstein JA. Placental pathology in COVID-19 American journal of clinical pathology. 2020;154(2):279. doi:10.1093/ajcp/aqaa 101.

Qabul qilingan sana 20.09.2024